

## HARBIY INTIZOMNI MUSTAHKAMLASHDA AXLOQIY BILIMLARNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7794598>



ELSEVIER



Received: 22-03-2023

Accepted: 22-03-2023

Published: 22-03-2023

**Nomuratova M.K.**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi  
Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi dotsenti



**Abstract:** Maqolada harbiy bo'linmalarda intizom, nizomga asoslangan tartibni yanada mustahkamlashda axloqiy bilimlarning ahamiyati haqida mulohazalar berilgan.

**Keywords:** . bilim, axloqiy bilimlar, ofitser intellekti, aql-idrok, axloqiy ong, tarbiya, nizom, harbiy intizom, odob, axloq.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Zamonaviy davlat professional tayyorgarlikka ega armiyasiz mavjud bo'la olmaydi. Armiyaning tayyorgarligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri – ofitser kadrlarning sifat jihatidan har tomonlama puxta tayyorgarligi hisoblanadi. Harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlar uning harbiy burchi bo'lib, u jamiyat, davlat talablari va Qurolli Kuchlarning vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik kengashining milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va isloh qilish masalalariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishida ta'kidlab o'tganidek, "Armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin, lekin axloqiy jihatdan zaifligi, jangovar ruhi, Vatanga sodiqlik va muhabbat, uning taqdiri uchun mas'uliyat hissi yo'qligi yoki loqaydlik tuzatib bo'lmas oqibatlariga olib kelishi mumkin". Shu ma'noda, Yurtboshimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori zamonaviy ofitserlarning axloqiy madaniyatini yuksaltirish, ularning bilimi va ma'naviy saviyasini oshirish, axloqiy-ruhiy xislatlarini yuksaltirish va mustahkamlash, ularning qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik, mas'uliyat, sadoqat va vatanparvarlik hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish bilan bog'liq dolzarb vazifalarni o'z ichiga oladi[1].

Harbiy qismlarda intizom, nizomga asoslangan tartib va tashkilotchilikni yanada mustahkamlashda axloqiy bilimlarning ahamiyati beqiyos. Axloqiy bilimlar harbiy xizmatchilarni tarbiyalashga, shaxsiy tarkib oldida o'zini to'g'ri tutishiga, to'g'ri muomala qilishiga, to'g'ri boshqarishiga yordam beradi. U xizmat faoliyati

doirasida qabul qilingan o'zini tutish me'yorlarining axloqiy andazalariga amal qilishga o'rgatadi. Harbiy xizmatchi bu andazalarga mo'ljal ola bilishi, ularga tenglashishi va o'zida talabdagi sifatlarni shakllantirishga intilishi lozim. Abdulla Avloniyning fikricha, "tartib va nizomga rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o'zlari parishon bo'lurlar. Ammo ishlarini tartib uzra yuritgan kishilarning ishlari yerida, o'zlari tinch va rohatda umr o'tkarurlar"[2].

Bugungi kunda harbiy sohadagi inqilobiy o'zgarishlar jangovar navbatchilik intizomi, o'zaro harakat intizomi, o'zaro munosabat intizomi, boshqaruv intizomi va h.k. tushunchalarni yangi mazmun bilan boyitdi. Hozirgi kunda nafaqat to'g'ri, balki o'z vaqtida ijodiy, tashabbuskorlik va yuksak darajada mas'uliyat bilan harakat qilish har qachongidan ham muhim. O'z vaqtida bo'lmagan to'g'ri harakat ham ba'zan tuzatib bo'lmaydigan, og'ir xatolarga teng bo'lishi mumkin.

Bo'linmadagi tartib-intizom, shaxsiy tarkibning o'qish va xizmatdagi muvafaqqiyat va kayfiyatlari, ko'p jihatdan, ofitserlarning ma'naviy-axloqiy yetukligiga bog'liq. Ofitser shaxsining intellekti ijtimoiy, tabiiy va harbiy bilimlarni o'zlashtirishi negizida shakllanadi. Bilimlar - falsafa, milliy g'oya, milliy mafkura bilan yoritilsa, axloqiy qadriyatga aylanadi, jamiyat va harbiy jamoa oldidagi burchga aylanadi. Nemis yozuvchisi Iogann Gyote ta'biri bilan aytganda, "Biz yaxshi axloq va xulqimiz vositasida kuch, zo'rlik va hattoki zo'ravonlik bilan ham erishib bo'lmaydigan narsalarni qo'lga kiritishimiz mumkin". Shu bois mustahkam ma'naviy-axloqiy asosga ega bo'lmagan maxsus harbiy-kasbiy bilimlar ham o'zining haqiqiy foydasini bermasligi mumkin. Afsuski, ba'zan shunday bo'ladiki, inson jangovar mahorati yuqori, texnik jihatdan bilimdon bo'lsa-da, kundalik amaliy ishlarida ko'rsatkichlari unchalik yuqori emas, do'stlari bilan munosabatda dimog'dor, shuhratparast bo'lishi mumkin. Natijada, bunday "bilimdon" kishi jamoa tomonidan e'tirof etilmaydi. Zero, axloq-odob insonni o'zini hurmat qilishga, go'zal xulqi vositasida boshqalarni qadrlashga o'rganadi.

Ongli shaxsni quyidagi uch elementning birligi tavsiflaydi: aql-idrok, his-tuyg'u va iroda. Agar aql-idroki kuchli bo'lib, iroda va emotsional tomonlari yetarlicha ifodalanmasa, unda ko'pincha qat'iyatsiz, tomoshabin sifatida kuzatib turuvchi kishini ko'ramiz. Agar his-tuyg'ular oldingi o'rinda tursa, unda o'zini tuta olmaydigan, o'zini boshqara olmaydigan besabr kishini ko'ramiz. Eng kuchli iroda ham, rivojlanmagan intellekt va his-tuyg'ularsiz jaholatda qoladi.

Rivojlangan intellekt, mantiqiy tafakkur, mafkuraviy yo'nalganlik, olijanob tuyg'ular va kuchli irodaga tayanishi - ofitserga hodisalar mohiyatiga kirib borishiga, ko'p narsalar orasidan eng muhimini ajratib olishga, amaliy vazifalarni muvafaqqiyatli bajarishiga, bo'ysunuvchilarini mahorat bilan boshqarishiga, ularga o'rnak bo'lishiga yordam beradi. Aksincha, nazariyada dunyoqarashi tor, xizmatga sayoz amaliyotchilik bilan yondashgan kishilar ma'nan qashshoq, qanoatsiz, ijod

quvonchi tuyg'ularidan mahrumdirlar. Ular murakkab keskin sharoitlarga tushganida, jiddiy to'siqqa uchraganida nima qilishini bilmay gangib qoladi, butun umidini tayyor, standart qarorlarga qaratadilar.

Aql-idrok axloqiy vaziyatdan tashqarida o'zini namoyon eta olmaydi. Har qanday qaror, niyat, xatti-harakat muayyan maqsadga ega bo'ladi, boshqa kishilar manfaatiga dahl qiladi, bu degani, intellektual qobiliyatlar milliy qadriyatlarimizga, milliy axloq tamoyillariga tayangandagina yuqori bahoga sazovor bo'ladi. Aql-idrok ongning ratsional tomoni sifatida axloqiy funksiyani ham bajaradi. Gap shundaki, shaxsning axloqiy ongliligi insonning ko'psonli ijtimoiy munosabatlarining tabiati va mohiyati haqida batafsil axborotga ega bo'lishni nazarda tutadi. Axloq hayvoniy boshlang'ich asoslarni ruhlantirish va insoniy lashtirish orqali kishilarning hayotini o'zgartiradi. Axloqiy kamol topgan insonlar o'zining barcha xohish-istagi va his-tuyg'ularini nazorat qila oladi, uning axloqiy tanlovi yaxshilikning ustuvorligi orqali belgilanadi. SHu bois ofitser har qanday vaziyatda ham to'g'ri qaror qabul qilishi, o'z qadr-qimmatini saqlashi, shaxsan o'ziga va ofitserlar korpusiga soya solishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlardan o'zini tiyishi kerak. Ulug' mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy o'z hikmatlarida insonni mukarram etuvchi fazilatlar haqida gapirib, "Elga molu dunyo, sharaf-shon obro' bo'lmay, hayo bilan odobgina sharaf hisoblanadi"[3], ya'ni inson uchun mansab, martaba, boylik emas, balki hayo bilan adab sharafliroq, deydi. Haqiqatdan ham, xurmat va sha'n unvon yoki dongdorlikda bo'lmay, balki kamtarinlik va halollikdadir. Odob esa o'zini to'g'ri tuta bilish va idora etish, kamtarlik, xushmuomalalik, bag'rikenglik, e'tiqodlilik, samimiylik, farosatlilik, zakovatlilik, ma'rifatparvarlilik kabi fazilatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqsak, komandir (boshliq) odob qoidalariga amal qilsa, go'zal axloqiy fazilatlarini orqali o'z faoliyatini tashkillashtirsa, shaxsiy tarkibni boshqarishi, qo'yilgan vazifalarni bajarishga safarbar etishi oson bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday bilim, xatto eng abstrakt, tashqi, siyosat va axloqdan uzoq bo'lganlari ham, amaliy qo'llanilganda tezlik bilan o'zining ijtimoiy "manfaatdorligini" namoyon etadi. Bunday holda bitta savol berishning o'zi kifoya qiladi: mazkur bilim nima uchun, nima maqsadda qo'llaniladi? - darhol uning axloqiy funksiyasi yuzaga chiqadi.

Qo'shinlarda harbiy intizomni mustahkamlashda axloqiy bilimlarni o'zlashtirish muhim o'rin egallaydi. U ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

Birinchi yo'l - axloqiy axborotlarni boshqa kishilar bilan kundalik muloqot davomida, stixiyali tarzda olish. Harbiy burch va majburiyatlari, sha'ni, qadr-qimmatini, baxti, vijdoni haqidagi bilimlar, ma'lum ma'noda, hayotiy "tajriba" - eshitgani, ko'rgani, his etgani, sinab ko'rganlari asosida shakllanadi. Bunda shaxs tomonidan qo'lga kiritilgan empirik ma'lumotlar haqiqat yoki yolg'on, qonuniyatli

yoki tasodifiy bo'lishi mumkin. U qanchalik kamol topgan bo'lsa, uning tanlash qobiliyati shunchalik maqsadga yo'nalgan bo'ladi.

Ikkinchi yo'l – tarbiyalash, nazariy tayyorgarlik. Davlatimiz Rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomalarida xalqimizning dunyoqarashi, tafakkuri talab va ehtiyojlari butunlay o'zgarganini ta'kidlab, sharq donishmandlarining “Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya. Eng katta qashshoqlik esa – bu bilimsizlik”, degan hikmatlarini doimo yodda saqlash muhimligini alohida qayd etdilar. Shaxsiy tarkibning axloqiy salohiyatini rivojlantirish, uni samarali boshqarish uchun komandirlar, tarbiyachi-ofitserlar shaxsiy namuna ko'rsata oladigan darajada ma'nan yetuk, go'zal axloqiy qadriyatlarni o'zlarida mujassam etgan bo'lishlari kerak. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomining 7-moddasida shunday deyiladi: “Komandir (boshliq) o'z qo'l ostidagilarga ... doimo qonun, harbiy nizom va buyruqlarni qat'iy bajarishda namuna bo'lishi, axloqiy pokizalik, halollik, kamtarlik va to'g'rilikda o'rnak bo'lishi lozim”[4].

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida ta'lim va tarbiya barkamollikka erishishning muhim vositasi ekanligini ta'kidlab, ta'lim nazariy hikmat, ezguliklarga o'rgatsa, tarbiya, o'z navbatida, pokiza axloqiy fazilatlarini shakllantirishiga urg'u beradi. Kishilarning ongi, his-tuyg'ulari, odatlari maqsadli ta'sir ko'rsatish, hayoti va faoliyati uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish orqali yuksak darajadagi axloqiy onglilik shakllantiriladi.

Oddiy askarga umumaxloqiy (yaxshilik va yomonlik, sha'n va adolatlilik, rag'batlantirish va jazo berish shakllari va h.k. haqida) bilimlardan tashqari, maxsus harbiy axloqiy bilimlar berish ham taqozo etiladi. Bular: boshliq va bo'ysunuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, jangovar vaziyatda shaxsiy tarkibda yuksak axloqiy barqarorlikni ushlab turish usullari, ayrim harbiy me'yorlar va qoidalarning mohiyati haqidagi tushunchalar tizimi kabilari tashkil etadi. Ushbu axloqiy bilimlar harbiy xizmatchilarning kundalik amaliy faoliyati, jangovar shaylikni yanada oshirish yo'lidagi kurashi, bo'linmalarda harbiy intizomni og'ishmay mustahkamlashi, mansab majburiyatlarini sidqidildan bajarishlari bilan uzviy bog'liqdir. Maxsus axloqiy bilimlarni targ'ib qilish intizom buzilishini oldini oluvchi choralardan biri.

Harbiy tartibning barcha talablarini aniq bajarish shaxsiy tarkibda jangovar faoliyat sharoitlarida zarur bo'lgan sifatlarni shakllanishiga olib keladi. O'z bo'linmasida nizomiy tartibni muntazam ushlab turgan va o'zi ham puxta rioya qilgan ofitser, harbiy xizmatchilarni shay turishga, xizmat burchini vijdonan bajarishga axloqan tayyor bo'lishga chaqiradi va bu tuyg'uni chuqur singdirishga intiladi. SHu sababli harbiy jamoada axloqiy yetuklik g'alaba qozonishi uchun uning ziddini tashkil etuvchi illatlar – manfaatparastlik, shuhratparastlik, hudbinlik, ichkilikbozlik kabilarga qarshi keskin kurash olib borish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibini jangovar shayligini yuqori darajada ushlab turishda, bo'linmalarda nizomiy tartibni barqarorligini ta'minlashda axloqiy bilimlarning ahamiyati katta. Bunda harbiy-kasbiy bilimlar axloqiy qadriyatga, erkinlik va faollikning eng muhim shart-sharoitlariga aylanishi lozim. Bilim qanchalik chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga keladigan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bunday qadriyatlar buzg'unchi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Zotan, o'z xalqining milliy g'oyasiga, an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat tuyg'usini tarbiyalamasdan turib, o'zligini anglagan insonni, o'z Vatanining chinakam jonkuyarlarini tarbiyalash mumkin emas.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida qarori. 2018 yil 4 avgust № PQ 3898.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-j. -T.:Ma'naviyat, 2006. -53 b.
3. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar./Nashrga tayyorlovchilar A.Tilavov, I.Saydullayev. -T.: Sano-standart, 2016. -78 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari. -T.: Sharq, 2007. -210 b.